



Nazar Eshonqul asarlarida davr fojeasining yoritilishi

Ahrorova Tursunoy Karimjon qizi

Adabiyotshunoslik yoʻnalishi magistranti,

Namangan davlat universiteti

Annotatsiya: Quyidagi maqolada Nazar Eshonqul asarlarida davr fojeasining yoritilishi xususida tahlillar olib borilgan.

Kalit soʻzlar: inson taqdiri, davr fojeasi, yozuvchi uslubi, qahramon portreti, ramziylik, badiiy sintez, repressiya.

Аннотация: В данной статье проведен анализ трагедии эпохи в творчестве Назара Эшангула.

Ключевые слова: человеческая судьба, трагедия периода, писательский стиль, портрет героя, символика, художественный синтез, репрессии.

Abstract: In the following article, the analysis of the tragedy of the era in the works of Nazar Eshanqul was carried out.

Key words: human fate, period tragedy, writer's style, hero portrait, symbolism, artistic synthesis, repression.

KIRISH

Bilamizki, Nazar Eshonqul adabiyot tarixida oʻz qalami va uslubiga ega ijodkorlardan biri hisiblanadi. Ushbu maqolada yozuvchi asarlarida davr fojeasining yoritilishi tahliliga asosiy eʼtibor qaratilgan. Ushbu maqola yozuvchining “Urush odamlari”, “Urush odamlari” asarlaridagi davr muhitining insoniyat boshiga keltirgan fojealari talqiniga qaratiladi.



MUHOKAMA VA NATIJALAR

Nazar Eshonqul adabiyotga dastavval an'anaviy uslubda yozilgan "Urush odamlari" qissasi bilan kirib kelgan. Shundan so'ng, adibning qator asarlari dunyo yuzini ko'rdi. Nazar Eshonqul asarlarida milliy ruh ustuvorlik qiladi. Hayotga, jamiyatga, insonlar taqdiriga faylasufona qarash, el-yurt dardini o'ziniki deb bilish ustunlik qiladi yozuvchi tabiatida. Adibning "Urush odamlari" qissasi urush davrining insonlar taqdiriga, ruhiyatiga ko'rsatgan ta'sirini yaqqol ko'rsatgan bo'lsa, badiiy adabiyot borasida boshqacharoq fikr yuritayotgan yozuvchi o'zining "Qora kitob" qissasi bilan faylasufona donishmandlik, ruhiy kechinmalar bayoni hamda bosh qahramonning o'z-o'zini taftish etishini boshqacharoq uslubda ko'rsatib berdi. Yozuvchining qaysi asariga qaralmasin barchasi bir narsaga – jamiyat, davr, insonlar taqdrini ochib berishga qaratilgan. Birgina "Urush odamlari" asarini olaylik. Sarlavhadan ko'rinib turibdiki, ushbu qissa urush mavzusida yozilgan. Garchand yozuvchi urush davri daxshatlarini o'z ko'zi bilan ko'rmagan bo'lsa ham o'sha davrni yaxshi his qilgan. Aslida urush mavzusida o'zbek adabiyotida talaygina nasriy ham, nazmiy ham asarlar yozilgan va bu asarlarning aksariyat qismi urush davrini ko'rgan, o'sha davr muhitida yashagan insonlar tomonidan tasvirlanadi. Lekin yozuvchi yuqorida ta'kidlaganimdek, u davrni ko'rgan emas. "Ammo bir haqiqatni unutmaslik kerakki, yozuvchi mo'ysafid yoshidagi momolaridan, bobolaridan urushning daxshatlari to'g'risidagi hikoyalarni eshitgan va yurak-yuragidan his qilgan bo'lishi aniq. Chunki garchand "Urush odamlari" da jang maydonidagi otishmalar, dushman bilan ochiqcha olishuvlarga oid epizodlar bo'lmasa ham, o'quvchi urush qoldirgan asoratni sezib, dil-dilidan his qilib turadi. Chunki Nazar Eshonqul urush davri odamlarining iztiroblarini, oilaviy mojarolarining kelib chiqish sababi aynan o'sha baloyi ofat ekanligini matnostida ta'kidlab turadi..."¹.

¹ Холдорев Д. Ижод мохияти – услуб хосияти. – Т.: 2017. Б 40



Nazar Eshonqulning ushbu qissasida urushning insonlar taqdiriga ta'siri masalasi atroflicha yoritilganligi bilan ajralib turadi. Undagi yetakchi qahramonlar bo'lgan Normat polvon, Anzirat, Mirzaqul rais, Biydi momo kabilarning ayanchli taqdirlari, ularning tinch hayotlarining azob-uqubat va iztirobli tus olishiga urush sababchi ekanligi asar syujeti vositasida ko'rsatib boriladi.

Qissa voqelari Normat polvonning urushdan bir oyog'idan ayrilib, to'rt yil deganda urushdan qaytib kelishidan boshlanadi. Voqealar shu darajada bo'ladiki, Anzirat urush paytidagi ocharchilik tufayli, farzandlarini qutqarish uchun Mirzaqul kabi pastkash insonning tuzog'iga tushib qoladi va eriga xiyonat qiladi. Eri qaytgach esa uning xomilador ekanligi ma'lum bo'lib qolgach, eri tomonidan o'lasini qilib kaltaklanadi, eri esa uydin ketib Biydi ammasining uyida yashab yurganida Mirzaqul ham frontga ketadigan bo'lib qoladi. U ketish oldidan Anziratni ko'rib, undan kechirim so'rash ugun kelgan paytida Normat polvon tomonidan har ikkilasi ham otib o'ldiriladi.

Asarning o'zida Anzirat va Biydi momo obrazlari bir-biriga konflikt usulda qarshilantiriladi. Biydi momo obrazi "Shamolni tutib bo'lmaydi" asaridagi Bayna momo obraziga ham o'xshab ketadi. Hayot doimo ikki tomondan iborat. Urush va tinchlik, oq va qora, xiyonat va vafo, g'urur va g'urursizlik, mehr va shavqatsizlik, mardlik va nomardlik bir-biriga qahramonlar ruhiyati, obrazlar orqali namoyish etiladi. Hayotning oddiy kunlik haqiqatlarini chizgi ostiga olgan yozuvchi tanganing ikki tomoni bo'lganidek, bir tomonini ko'rsatib, ikkinchi tomonini yashirmaydi, boricha, ayni ko'ringani holida yozadi va o'quvchi e'tiboriga havola etadi.

Adabiyotshunoslik darslaridan birida, ushbu asarni tahlil qilgan chog'imizda ko'plab kitobxonlar "Ikki eshik orasi" asaridagi Ra'no va yuqoridagi asar qahramoni Anzirat, Biydi va Qora amma, Chingiz Aytmatovning "Jamila" qissasidagi Jamila va "Ikki eshik orasi"dagi Zuhra kelinni bir-biriga qiyoslab tahlil qilishgan. Ayrimlar Ra'no va Anzirat xarakterlaridagi o'xshashlikni tahlil qilarkan, har ikkala qahramonni ham qoralaydi va har ikkisini bir-biriga teng qo'yadi. Ammo mening nazarimcha bu ikki obraz o'rtasida yer-u osmoncha farq bor,



to'g'ri, garchi xiyonatning har qanday turi xiyonat bo'lsa ham. O'quvchilarning barchasi Anzirat obrazini salbiy qahramonlar qatoriga kiritishgan, ammo mening fikrlarim, biroz boshqacha. To'g'ri, avvalo, ayol kishining xiyonati o'zbek mentalitetiga to'g'ri kelmagan, kelmaydi ham. Lekin men doimo shu asarni, o'qib tahlil qilgan vaqtimda Anziratga ona sifatida qaramayman, ona ko'zi bilan boqaman. Anzirat va Ra'no o'rtasidagi farq ham ana shunda, ya'ni Anzirat farzandi uchun Mirzaquldek o'z nafsiga qul bir insonning tuzog'iga ilinadi, isitma bilan yonayotgan farzandini hayotda saqlab qolish uchun o'zidan, o'zligidan voz kechishga majbur bo'ladi. Lekin Ra'no unday qahramon emas. Umar zakunchi va Mirzaqul obrazlari esa hayotdagi o'z nafsining qul kimsalari, Qora amma va Biydi momo obrazlari haqiqiy sadoqat timsoli, Normat polvon va Shomurod obrazlarida esa or-nomus uchun kurashayotgan, o'zbek erlariga xos bo'lgan fazilatni ko'rish mumkin.

Qissaning markazida asosiy qahramonlar sifatida er-xotin Normat va Anziratning fojiali taqdiri turardi. Eson-omon qaytgan Normat polvonga hayot ham tatimaydi, u o'z uyida fojiali qismatga duch keladi. Bu qismatdan na qochib qutilishning, na unga chap berishning aslo iloji yo'q bo'ladi.

Bundan tashqari, yozuvchining "Shamolni tutib bo'lmaydi" asar ham urushning insoniyat boshiga slogan ayanchli taqdirlarini o'quvchiga ko'rsatib beradi. Bitta-yu bitta o'g'ilning, butun umr suyanchiq bo'lgan turmush o'rtog'ining urushga ketib qaytib kelmagan Biydi momoni alal oqibat qotilga aylantiradi, qo'lini qonga belanishiga sabab bo'ladi.

Nazar Eshonqulning "Maymun yetaklagan odam" asari 1989-yilda, mustaqillikka endigina odim qo'yayotgan vaqtlarda yozilgan va yozilishi bilanoq juda ko'p bahs va munozalarga, shov-shuvga sabab bo'lgan edi. Yozuvchi asar qahramoniga nom bermaydi, bu bilan yozuvchi qahramonni alohida bir shaxs emas, ko'pchilikning timsoli, degan xulosani taqdim qiladi. Yoki erksizlik hukmron bo'lgan jamiyatda inson shaxsi yemirilishiga mahkum ekanligiga ishora qilingan deyish mumkin. Hikoyadagi qora ranglar bilan nafaqat cholning ichki dunyosiga, ruhiyat olamiga, hayotiga balki, tuzumga daxldor ekanligi, inson haq-huquqlari poymol bo'lgan jamiyatning inqirozga yuz tutishi muqarrarliligi ko'rsatilgan,



asardagi tasvirlar sho‘ro mafkurasiga ishonib o‘tgan va qarigan chog‘ida haqiqatni bor budi bilan his qilgan insonning iztiroblaribi tasvirleydi. Mustabid mafkura, totalitar tuzum, inson erki, sha‘ni, qadr-qimmati, tili, dini oyoqosti qilinayotgan zamonning asl basharasi ochilgan hikoyada, bir avlod umrining tanazzuli ko‘rsatib berilgan.

Rassom chol chizgan suratlarning yillar bilan nomlanishida ham ramziylik bor. “1957”, “1947”, “1937”, “1928”, “1926”, “1921” yillar sanasi Turkiston tarixidagi qizg‘aldoq rangiga bezatilgan sanalar. Millat tarixining alamli kunlarini qisqa va lo‘nda tarzda ayta olishz tasvir va talqindagi o‘ziga xoslik yozuvchining mahoratidan xabar beradi. Har bir surat va raqam ostidagi yozuvda muallif qalbidagi alamli yaralarning izi akslangan deyish mumkin. Bu kabi xususiyatlar millat chinakam fidoyisi, ma‘rifatli ziyolisining ijodiy qiyofasini ko‘rsatadi.

“1921” sanasi qo‘yilgan suratda qora rang boshqalariga qaraganda kamroq, unda o‘rmondan maymunni yetaklab chiqayotgan kuchli va alpqomat yigit tasvirlangan, suratlarni ko‘zdan kechirgan kishining qalbida allaqanday anglab bo‘lmas va tushuniksiz g‘ashlik paydo bo‘ladi, diliga noxushlik yopirilib kiradi.

Agar “1926” ga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, Abdulla Qodiriyning “Yig‘indi gaplar” asari uchun qamoqqa olinganligiga ishora, ehtimol. Maymun yetaklagan yigit suratida “Yigitning ko‘zlari tiyrak va ishonch bilan porlab turar, maymunning bo‘yniga solingan kishan tarang tortilgan edi”.

Bu suratlarda nafaqat cholning, balki butun boshli davrning fojiasi aks etgan edi. Maymun tabiat ramzi bo‘lib, yigit jamiyatning timsoli. Ma‘lumki, sho‘rolar davrida tabiatni bo‘ysundirish, insoniyat manfaatlariga xizmat qildirish uchun xizmat qilingan edi. Ikki o‘rtadagi ayovsiz kurashlar har ikki tomonga ham ko‘p yo‘qotishlar keltirgan edi, birgina Orol fojeasining o‘zi ham muammoning nechog‘liq keng qamrovli ekanligini ko‘rsatadi. Tabiatning o‘ziga qilingan zo‘ravonlik uchun o‘ch olishi, munosib javob qaytarishini bugungi kunning o‘zi ko‘rsatib turibdi. Inson tabiatga qo‘shib, o‘zini, o‘zligini ham xarob qiladi.

Tarixiy muhitni badiiy sintez qilish orqali yozuvchi mustabid tuzumning qiyofasini yaratgan va inson qadr topmagan har qanday jamiyatning inqirozga yuz tutishini ko‘rsatgan.



Rassom cholning so‘nggi suratida ham o‘rmon tasvirlangan. Bu ikki surat o‘rtasidagi farq cholning hayoti bilan bog‘liq. Ushbu yakun orqali shaxs fojeasi to‘liq ochib berilgan.

“Og‘riq lazzati” hikoyasini olaylik, asar qatag‘on davri, mahbuslar hayoti haqida. Turli jismoniy azoblar, og‘ir sharoit tufayli och-nahor, ust-boshi uvada, butun tanasini yara-chaqa va jarohatlar qoplagan mahbuslar qancha azobga duchor qilinsa ham, ularning yuzida tabassum balqib turadi.

Mazkur hikoyani tahlil qilar ekan, X. Karimov, uni ikki xil talqin qilish mumkin, degan fikrni o‘rtaga tashlaydi, dunyoviy jihatdan “jamiyatda ro‘y berayotgan voqea-hodisalar mohiyatini teran idrok etishga qodir shaxslarning iztirobi inkishof qilinganz diniy jihatdan esa, “yorug‘ dunyo azoblariga bardosh berishlik Allohning sinovidan o‘tib, oxirat saodatiga erishmoqlikdir”, deb talqin qiladi munaqqid. Bizningcha ham, adabiyotshunosning e‘tirofi to‘g‘ri va o‘rinli. Taqdirning imtixonini, turli mushkul sinovlarga dosh berish bilan inson ruhi poklanadi, hayotni chuqurroq anglaydi, tiriklikning bebaho ne‘mat ekanligini his qiladi.

XX asrda xalqimiz bir necha marta qatag‘onga duchor bo‘ldi, millatparvar zotlar turli siyosiy ayblar bilan otildi, surgun qilindi, ijodlari ta‘qiqlandi. Fitrat, Qodiriy yashagan 37-yillar, Oybek, Shayxzoda, Mirtemirning uzoq muddatga qamalishi – ikkinchi repressiya, Said Ahmad singari yozuvchilarning nohaq hibsga olinishi, 70-80- yillardagi siyosiy buxronlar, so‘z erkinligining ta‘qib ostiga olinishi, har qanday hur fikrning keskin qarshilikka uchrashi, bularning barchasi millatning ruhini sindirishga, uni ma‘naviy-ruhiy jihatdan majruh qilishga qaratilgan, tili, dini, an‘ana va qadriyatlaridan ajrarib, shonli tarixini buzib ko‘rsatib, o‘zligidan ayirishga mo‘ljallangan edi.

Nazar Eshonqulning “Tobut shahar” hikoyasida tasvirlangan voqea shaharda bplib o‘tadi, hikoya qahramonlari va bosh hamrohlari birgalikda o‘lat shaharga borishadi. Asar me‘mor tilidan hikoya qilinadi. Hikoya tobut shaklida qurilgan shahar – ya‘ni, sovet tuzumi haqida. Odamlarning hissiz va loqaydligi, me‘morning aqldan ozishi, shahardagi qo‘lansa hid, borgan sari og‘irlashib borayotgan ahvol, o‘zini-o‘zi yemirib borayotgan shahar, mustabid tuzumning belgilarini ko‘rsatuvchi ramzlar. O‘zi umuman asar ramziylikka



asoslangan. Xalqlarni manqurtga, tirik qullar, tekin ishchi kuchiga aylantirmoqchi bo'lgan tuzum tobutga o'xshatilgan. Bu odamzot hali xayoliga keltirmagan shahar – ilmiy kommunizm degan niqob ostidagi qonli siyosatning aksi.

Nazar Eshonqulning “O'lik mavsum” hikoyasidagi bayon qilingan voqea real hayotdagidek tuyuladi. Oliy o'quv yurti talabalari hammalari uchun nihoyatda sevimli bplgan o'qituvchilarining har bir darsini orziqib kutishadi, uning har bir sabog'idan o'zlari uchun zarur bo'lgan ham ilmga ham ruhiyatlariga yorug'lik beruvchi, tafakkurgs kuch beruvchi ma'naviy chanqoqlikni qondiruvchi xazinaga ega bo'lishadi. Ustoz shogirlarning savollariga javob qaytarar ekan, talabalar uning fikrlaridan hayratga tushadi. Ular o'zaro kelishib tao'tilda ustoz bilan yanada yaqinroq tanishmoqchi bo'ladilar, ta'til payti, ehtimol ma'naviy tanazzulga boshlanayotgan davrga ishora.

Xullas, ustozni uchrashuvga taklif qilish uchun uning yashash manzilini izlay boshlashadi. Biroq uning uyini hech kim bilmasdi. Va nihoyat xodimlar bo'limidan uning uy manzilini topishadi. Voqealar shu nuqtada kulminatsiyaga ko'tariladi. Real voqelik mutlaq boshqacha tus oladi va o'quvchini yana qayta o'qishga majbur qiladi. Chunki manzil topilganda o'quvchilar g'alati bir holatga tushadilar. Ustozning uyi deb ko'rsatilgan manzil, qabriston bo'lib, qabriston va uyning raqami bir xil ekanligi, aslida, uning allaqachon vafot etkanligi, o'zlariga dara berayotgan inson marhum ekanligi aniq bo'ladi. Voqeadan insonga faqat o'liklar emas, balki marhumlar ham ustozlik qilishi mumkin, degan xulosa chiqadi.

Qatag'on qurboniga aylangan Fitrat, Cho'lpon, Qodiriy kabi yuzlab alloma-ijodkorlarning kitoblari goh oshkora, goh yashirin tarzda qariyb bir asrdan beri ilm-ma'rifat ahli tomonidan sevib o'qib kelinmoqda. Shunga asoslansak, ustizlik qiladigan rahnamoning tirik bo'lishi unchalik ahamiyatga ega emasligi ko'rinadi.



XULOSA

Yozuvchi tarixiy va ijtimoiy muhitni ko'rsatish orqali, o'sha davrga xos mafkuraning, yovuz siyosatning mohiyatini ishonarli chizib bergan. Hayotiy va badiiy haqiqatning sintezi o'laroq yaratilgan bunday hikoyalar baribir kitobxonni yaqin tariximizda yuz bergan mudhish voqelar bilan obrazli tanishtiradi, tafakkurning kuchi har qanday siyosatdan, hatto o' o'limdan ham ustun ekanligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Шарқ, 2007. 336 б.
2. Расулов А. Умри уволлар қиссаси // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1999. – №6. – Б. 149–152.
3. Эшонқул Н. Ялпиз ҳиди. – Тошкент: Шарқ, 2008. 398 б.
4. Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. 546 б.
5. Холдоров Д. Ижод моҳияти – услуб ҳосияти. – Т.: 2017. Б 40